

O‘zbeklarda el tanish ishi.

Men bu yil yoz o‘zbek bilim hay’ati tomonidan Turkiston o‘lkasida yashovchi o‘zbeklar orasig‘a o‘zbek etnografiyasig‘a tegishlik ma’lumot to‘plamoq uchun yuborilg‘on edim. Menim ustimga tushgan bu vazifa ilmiy va amaliy yoqdan muhim bo‘lg‘onlig‘i kabi bizning o‘zbek olamida yangi bir masaladir.

Turk urug‘lari orasida o‘zbek urug‘i eng oz tekshirilgan bir urug‘dir. O‘zbekning qabilaviy turmishi o‘zaro urug‘larg‘a bo‘linishi haqli adabiyoti, diniy, huquqiy odatlari, ijtimoiy va iqtisodiy hollari to‘g‘risida turk – islom adabiyotida jiddiy asarlar bo‘lganidek, rus va g‘arb adabiyotda ham bu haqdagi ma’lumot g‘oyat suyuq.

O‘zbeklarni tanish masalasini birinchi martaba o‘zbek bilim hay’ati butun borlig‘i bilan ko‘z oldig‘a keltirib qo‘yib, bu masalani asosli suratda hal qilmoqchi bo‘ldi va bu yangi va g‘oyat qiyin bo‘lg‘on vazifani ming ustimga tashladi. To‘g‘ri, bu vazifa juda sharaflik. Faqat ma’naviy, moddiy kamchiliklar, vositasizliklar ichida bu vazifani o‘tish juda qiyin bo‘lsa ham, men bir tomondan xalqimga, ikkinchi yoqdan etnug‘rafiya ilmiga bo‘lg‘on muhabbatim orqasida bu ishga kirishmakka jasorat qildim.

Men 4 oycha Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona muzofotlarida qishloqma-qishloq yurib, o‘zbekning moddiy va ma’naviy madaniyati bilan tanishdim. Hozir sayohatimda olg‘on taassurotimni yozib turmasdan, faqat o‘zbekni tanish ishida nimalar qilg‘onimni va qanday narsalar topqonimni aytib ketmakchiman.

Sayohatga chiqar oldida mening tuzgan ish rejam juda keng edi, ammo bu rejadagi ishlarning bir nechasinigina ishlay oldim. Bunga sabab menim ishsizligim emas, balki o‘zo‘zbekning etnug‘rafiy narsalarda boylig‘idir. Turmushning qorong‘i zindonda zarurat bilan umr o‘tkazishga mahkum bo‘lg‘on bir faqir birdan erkka chiqib oltun va mujavharot bilan to‘lg‘on shohona xazinaga kirganda qanday o‘zini yo‘qotib qo‘ysa men ham xalqimizning ma’naviy boylig‘i oldida o‘zimni yo‘qotdim; ish rejamda ko‘rsatilgan bir moddani asoslik suratda hal qilmoq uchun yillarcha ishlash kerakligini sezdim. Shuning uchun ish rejamdan ikki masalani – 1) o‘zbeklarning qabilaviy bo‘linishlari 2) o‘zbek xalq adabiyotini – ayirib olib shu ikki ishni ishlab chiqarishg‘a tirishdim.

Birinchi masala ya’ni o‘zbek urug‘lari to‘g‘risida bu choqqacha turk – islom va g‘arb adabiyotida qayd qilinmag‘an yangi ma’lumot to‘pladim.

O‘zbeklar o‘troq turmushi sharoiti ostida o‘z qabilaviy bo‘linishlarini esdan chiqara boshlag‘anlar. Ko‘p o‘zbek urug‘lari bosh urug‘ini bilib uning bo‘limlarini, aymog‘larini bilmaydirlar. Yolg‘iz qumquloq qariyalargina o‘z urug‘ aymoqlari to‘g‘risida qanoatlantirgudek ma’lumot bera olurlar. Qabilalar to‘g‘risidagi tekshirishni hech to‘xtamasdan davom etdirish kerak. Chunki qumquloq qariya o‘zbeklarda juda oz qolg‘on. Bularning o‘lishi bilan Turkistonda yashag‘uvchi o‘zbek urug‘lari haqida qimmatlik ma’lumotlar yo‘qolur; Shuning bilan birga o‘zbek urug‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotni to‘ldirish uchun Buxoro, Xiva va Afg‘onistonda yashag‘uvchi o‘zbeklar orasig‘a maxsus hay’atlar yuborub, bu yo‘ldag‘i tekshirish-kavlash doirasini kengaytish kerak.

Qariyalar o'zbeklarning "Il no'g'oy"dan "Dashti qipchoq"dan kelganini so'yladurlar.

Demak, bizga o'zbekning eski yurti bo'lg'on Joyiq va Idil bo'ylariga ham borib, uning eski izini izlash kerak bo'latur. O'zbek urug'lari to'g'risida to'plang'on ma'lumotlarimni tartibga solg'ondan so'ng gazeta va jurnallarda bosdiray degan niyat bor, shuning uchun bu to'g'rida so'zni qisqartirib o'zbek xalq adabiyoti haqida biroz so'zlashaylik.

Turk urug'lari orasida qozoqdan qola, xalq adabiyotiga boy urug' o'zbekdir deb o'ylayman. Men Hamroqul shoir, Bola baxshi, Fozil Jirov degan o'zbek xalq shoirlari bilan ko'rishdim. Bulardan Alpomish, Go'ro'g'li, Yusuf Ahmad, Oshiq Murod kabi o'zbeklarda suyumlik dostonlarni va turlik mavzudagi termalarni – o'qitdim; Maktab yuzini ko'rmagan, kitob yuzidan oq – qorani ayira olmag'on bu shoirlar yoqimli so'zlari, uyqoshqan jummalari, to'la va go'zal tasvirlari, she'ri nafosatlari bilan mening ruhimni sehrladilar. Shoirning dostonini eshitmak uchun ishini, kuchini tashlab yig'ilg'on chol-kampirlar, yigit-qizlar, bolalar bilan birga meni iste'dodlik va san'atkor, turk, fors, arab, rus adilarining nafis asarlari bilan erkalangan meni ham kuldirdilar, yig'latdilar bu shoirlar qo'llarig'a do'mbiralarni olib o'qishg'a kirishganda tinglag'uvchi shoirning xayol qanotig'a o'lturub dostonida zikr qilg'on dunyog'a uchadir dostonida ishtirok etgan qahramonlar bilan birga butun voqea va taasurotdan ta'sirlanadir. O'zbek xalq shoirlari go'zal bir shoir bo'lg'ondek usta bir o'quvchi (Deklamator) va o'yunchi (Artist)dirlar. Bir doston yoki terma o'qig'anda bu shoirlar mavzuga qarab tovushlarini va turqlarini o'zgartira boradurlar. Bularning xalqqa ta'siri ham juda zo'r. Bir ovulg'a baxshi kelsa, ul ovulning xotin-qizlari, erlari, bolalari yig'ilib 10-8 soat baxshining ashulasini tinglaydurlar. Ziyofat pul va sarpolar va ba'zi vaqt ot mindirib jirovning ko'nglini xushlaydilar. O'zbek eli baxshi qarashini ushbu matali bilan op-ochiq ko'rsatadir: "Mullolik ovul qo'rqq, baxshilik ovul botir". Yuqorida so'zlangan dostonlardan Go'ro'g'li, Yusuf Ahmad dostonlarining bosilg'onlari ham bor. Faqat bu bosmalari og'izda aytilganlariga qarag'anda hajm jihatidan kichik bo'lg'ondek, mundarija va nafosat adabiy yog'idan ham ko'p noqisdir. Bu ikki doston o'zbek va turkmanlar orasida mushtarak dostonidir.

O'zbekning milliy dostoni Alpomishdir. Alpomish o'zining mundarija va nafosat adabiyasi bilan Go'merning "Ellada"siga teng bir asardir. Alpomish o'zbek ko'chmanchi turmushining ko'zgusi, Alpomish dostonida o'zbekning cheklarlari, botirlari, qullari, dehqon va cho'ponlari bular orasida bo'lg'on ijtimoiy munosabatlar oila hayoti, diniy nazariyasi, mol va hayvonlarga qarashi, kurash, urush, to'y va azalarda bo'laturg'on rasmlar op-ochiq ko'rsatadir; buzqirlar, tog'lar, suvlar, ko'k, yulduzlar shoirona bir mahorat bilan tasvir etiladir. Alpomishda usta kinoyalar, o'tkur kulgilar, mung va fojealar bilan to'lg'on.

Bu doston Sirdaryo muzofotida yashadurg'on qozoqlarda ham mashhur bo'lub ularning baxshilari tomonidan ham o'qilatur, qozoq tilida. Qozon va Toshkentda bosilg'on "Alpomish botir" degan asarlar bor. Faqat bu asarlar Alpomish dostonining bir necha parchasidan iborat bo'lub juda iste'dodsiz

baxshilar tomonidan aytilganligi uchun asli dostondag'i nafosat yo'qolg'on. Alpomish dostoni eng ovul qozoq tilida bosilg'anlig'i uchun qozoq dostoni deb o'ylanadur bu juda yanglish bir o'y.

Alpomish botir o'zbekning qo'ng'iroq degan elining Boysun degan urug'idan chiqqan Hakimbek degan tarixi bir botirning laqabidir. Hakimbekning otasi Boybo'ri uning otasi Alpinbiy, uning otasi Dovonbiy bo'lg'onini men o'zbek shoiri Fozil Jirovdan va boshqalardan eshitdim.

Men Alpomish dostonining bir necha pardasini yozdim. Dostonni tamom yozishg'a tilasam ham tilagimga yeta olmadim, moddiy yoqdan ta'min etilmaganligim bunga mone' bo'ldi.

Turkiston o'lkasida iste'dodlik to'rt o'zbek xalq shoiri bor. Bularning yoshi 60-40 orasida. Mana bular o'lib ketmasdan og'izda yurgan o'zbek dostonlarini tezroq yozib qolish kerak. G'aflat etsak eng qimmatlik milliy dostonlarimizdan ayrilub qolurmiz.

Bulardan boshqa men o'zbek laparlari, o'lanlari, ertaklari lug'at va istilohlari, jumboqlari va mingdan ortiq o'zbek matallari (zarbul masal) to'pladim. O'zbek tilining sarfi va nahvi qonunlari to'g'risida ba'zi bir tadqiqotda bo'lindim.

O'zbekda el tanish ishi boshlandi, faqat odatimiz bo'yincha bu ish ham boshlanub tashlanmasun.

Unutmaylik el tanish siz manimcha kerak adabiyotda va kerak ijtimoiyatda to'g'ri bir yo'l topib bo'lmaydi. Xalqimiz tarixiy xotiralar ma'naviy nafosatga boy. Biz bu boyliqdan foydalanish ishiga chinlab kirishaylik.

Sayohatimda o'zlaring maslahatlari va ma'lumotlari bilan menga yordam etgan Kattaqo'rg'onlik Bahrombek Davlatshoev, Zarif Qodirov samarqandlik Vadud Mahmudov va Muhammadjon Yusuf o'rtoqlarg'a va Samarqand uyazi halvoyi bo'lisidag'i Sarchashmalik Mullo Islombek qozi janoblariga va boshqa birodarlarga tashakkur aytaman.

G'ozim Olim (Yunus)
“Turkiston” gazetasi № 38. 1922 yil 18 dekabr.
(O.Z.)